

Suratlardan haykallarga



17:38 / 06.10.2019 1917

Ular suratlardan haykallarga o'tdilar. Solih kishilarga ko'plab haykallar yasadilar. Ularni, uylariga va masjidlariga qo'ydilar. Ular, Allohga ibodat qilar va unga hech narsani sherik qilmasdilar. Bu haykallar, solih kishilar ekanini bilardilar. Albatta, bular bir tosh bo'lib, ularga foyda ham zarar ham rizq ham bera olmas edi. Lekin ularni tabarruk ma'nosida ulug'lardilar, chunki ular solih kishilarning haykallari edi. Ular orasida bunday haykallar ko'payib, ularni ulug'lash ziyodalashdi. Agar ulardan biror solih kishi o'lsa, unga bir haykal yasab, uni o'sha kishining ismi bilan atashar edi.